

KEGAYTIRILGAN OILALARDA AN'ANAVIY GENDER TAFOVUTLARINING  
SOTSIOLOGIK TAHLILI

Raxmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bugugi kunda nafaqat mamlakatimiz balki dunyo miqyosida ham ahamiyatli masalardan biri sanalayotgan gender tenglik tushunchasining oilaviy munosabatlardagi o'rni, xususiyatlari haqida gap ketadi. Aynan O'zbekiston hududidagi an'anaviy katta oilalar tizimidagi keng tarqalgan muammolardan biri oilaviy munosabatlarda erkak va ayollarning haq-huquqlaridagi differensial holatlar va buning natijasida kelib chiqadigan ajirim, o'lim (o'z joniga qasd qilish – suidsid) kabi qator fundamental muammolarni sotsiologik jihatdan o'rganishdir.*

**Kalit so'zlar:** *Sotsiologiya, katta oila, an'anaviy oila tizimi, jamiyat, gender tenglik, sotsial differensiatsiya, gender rol, fenomen, gender balans.*

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННЫХ ГЕНДЕРНЫХ РАЗЛИЧИЙ  
В РАСШИРЕННЫХ СЕМЬЯХ

Рахматуллаева Озода Шахриддиновна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Факультет социальных наук

Социология студентка 2 ступени

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли и особенностях понятия гендерного равенства в семейных отношениях, которое считается одним из важнейших вопросов не только в нашей стране, но и в мире. Одной из общих проблем в системе традиционных многодетных семей в Узбекистане является ограничение прав мужчин и женщин в семейных отношениях, в результате чего социологически освещается ряд фундаментальных проблем, таких как развод, смерть (самоубийство).

**Ключевые слова:** Социология, общество, большая семья, традиционная семейная система, гендерное равенство, социальная дифференциация, гендерная роль, феномен, гендерный баланс.

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF TRADITIONAL GENDER DIFFERENCES IN  
EXTENDED FAMILIES

Rakhmatullayeva Ozoda Shakhridinovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Faculty of Social Sciences

Sociology 2nd stage student

**Annotation:** This article talks about the place and characteristics of the concept of gender equality in family relations, which is considered one of the most important issues not only in our country but also in the world. One of the widespread problems in the system of traditional large families in Uzbekistan is the differential situation in the rights of men and women in family relations, and a number of fundamental problems such as the resulting division, death (suicide) are sociologically is learning in terms of. One of the important issues that need to be studied within the framework of sociology is the issue of gender equality.

**Key words:** Sociology, society, extended family, traditional family system, gender equality, social differentiation, gender role, phenomenon, gender balance.

Ma'lumki, an'anaviy o'zbek jamiyatida oila masalalari doimo o'z dolzarbligini saqlab keladi. Ayniqsa, kengaytirilgan katta oilalar iyerarxiyasida hamma zmonlarda ham ko'plab ijtimoiy-psixologik muammolar mavjud bo'lgan. Achinarli jihatni esa oilalardagi ushbu murakkab jarayonlar o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ham ruhan, ham jismonan salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Inkor eta olmaymizki, ushbu dolzarb masala yuzasidan ko'plab sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Biroq biz ushbu sotsiologik tadqiqotda bu muammoni aynan hozirgi globallashuv davridagi holat bo'yicha o'rganishni lozim deb topdik.

Muammoning dolzarb jihatni quyidagilar bilan belgilanadi:

- An'anaviy oilalar tizimida ko'p farzandlilik sababli tug'ilayotgan farzandlarning jinsiga nisbatan tafovutlash natijasida oilalardagi ajrim holatlarining yuzaga kelishi;
- Katta oilalar tizimida gender masalalariga nisbatan yuzaki qarash natijasida jamiyatimizda shaxslararo munosabatlarda jinsiy notenglilik bo'yicha ijtimoiy muammolarning ko'payishi.

Mavzu yuzasidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda maxsus respondentning shaxsiy ma'lumotlari saqlagan (latent) holatda olib boriladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** An'anaviy oilalar tizimida farzandlar tarbiyasidagi gender tengsizlik omillarini aniqlash orqali uning keskinligini yumshatish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:** Berilgan maqsaddan kelib chiqqan holatda biz quyidagi vazifalarni oldimizga qo'yamiz:

1.Jamiyatimizdagi eng murakkab tizim - oila tizimidagi gender tengsizlik natijasida o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarda begonalashuvga olib keluvchi omillarni o'rganish;

2. Eski stereotiplar bo'yicha oila tizimining shakllanishi zamonaviy jamiyaning rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazayotganligini oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti:** Tadqiqotning obyekti sifatida an'anaviy oilalarda gender differensiatsiyasi, predmeti sifatida esa gender differensiatsiyani shakllantiruvchi stereotiplar va ulaning salbiy oqibatlari o'rganiladi.

**Asosiy tushunchalarning nazariy talqini (interpretatsiyasi):** Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Nafaqat oilaviy munosabatlarda balki jamiyat hayotida ham jinsiy tengsizlik — gender diskriminatsiyalarining mavjudligi ko'plab ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa eski stereotiplarning inson ongiga singib ketgani oqibatida yangi global makon bilan hamnafas bo'lishda qator to'siqlar paydo bo'lmoqda.

**Gipotezani ilgari surish:** Tadqiqotni nazariy jihatdan o'rganish va shaxsiy kuzatishlarimiz natijasida quyidagi farazlarni ilgari surdik:

**1-GIPOTEZA (ta'riflovchi):** Bugungi kunda Yangi O'zbekiston jamiyatida oilalardagi fazandlarni gender diskriminatsiyaga ko'ra tafovutlash muammosi anchagina kamaymoqda. Natijada o'sib kelayotgan yangi avlodning kelajakka bo'lgan ishonch, umid, mehr-muhabbat tuyg'ulari tobora ortib bormoqda va bunday avlod ertangi yangi innovatsion jamiyatning asoschilaridan biri bo'lishi mumkinligi gipoteza qilinmoqda.

**2-GIPOTEZA (tasvirlovchi):** O'rganilgan nazariyalar va sotsiologik kuzatishlar natijasida shuni aytish mumkinki, agar an'anaviy oilalarda yoxud jamiyatimizda gender tenglik masalalariga yuzaki munosabatda bo'lish bu ijtimoiy hayotimizdagi proporsionallikning buzilishiga olib keladi. Natijada xotin-qizlar huquqlarining buzilishi holatlari ko'payadi. Ayollarga nisbatan jtimoiy, fiziologik zo'ravonlik holatlari ko'payadi. Oilaviy ajirimlar soni ortishi, o'z joniga qasd qilish holatlari ham yuzaga kelishi ehtimoldan holi emas.

**3-GIPOTEZA (tasvirlovchi):** Har qanday jamiyatda ham aholining umummilliyl qadriyalari, urf-odat va an'analari bilan uzviy bog'liq masalalar mavjud bo'ladi. Biroq keraksiz "urf-odatlar" ertangi rivojlangan jamiyatning hayotiga jiddiy salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi.

**Birlamchi ma'lumotlar o'tkazish usuli:** Olib borilayotgan sotsiologik tadqiqot sifatiy xususiyat kasb etgani uchun ham anketa, ham intervyyu ko'rinishida o'tkaziladi.

**Tanlashni amalga oshirish:** Tadqiqotni o'tkazish jarayonida maxsus respondentlardan foydalaniladi. Respondentlarning yoshi bo'yicha aniq chegara qo'yilmaydi.

Tadqiqotimiz jarayonida O'zbekistonning Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlaridan maxsus respondentlar tanlab olinadi. Bu jarayon tadqiqotimizning bosh majmuasini tashkil qiladi. Respondentlar mahalla va hududlardagi aholini ro'yxatga olish tashkilotlari tomonidan tanlab olinadi. Tadqiqot mobaynida 40 ta respondentning ishtirok etishi ko'zda tutilmoqda.

**Ma'lumotlarni qayta ishlash:** Olingan birlamchi ma'lumotlar SPSS va EXCEL maxsus dasturlari orqali tahlil qilinadi va qayta ishlangan ma'lumotlar jadvallar va diagrammalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shu ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Ushbu sotsiologik so'rovnoma natijasida nafaqat muammoning eng asosiy sabablari qatorini aniqlashtirib olishimiz mumkin, balki mamalakatimizda dolzarb masalalardan biri bo'lgan an'anaviy eski stereotiplar ustiga qurilgan oilalardagi ajirimlarga qarshi chora ko'rish hamda ajirimlar sonini yanada kamaytishga xizmat qilishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotida insonlar o'z atroflaridagi kishilarga nisbatan e'tiborsiz munosabatda bo'lar ekan, bunday holatlarda shaxslararo ishonchhsizlik kabi yanada murakkab diskurs muammolar yuzaga kelaveradi va taraqqiyotning shiddatkorligiga tabiiyki, salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'yaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Encyclopedia of Sociology Second education Volume 1. Edgar F.Borgatta Editor-in-Chief University of Washington, Seattle Rhonda J.V.Montgomery.
2. Узбекистан Обновленная гендерная оценка по стране Ташкент. декабрь 2018 г. Стр 34.
3. www. abd.org
4. Гендерная статистика и политика в интересах равенства и женщин и мужчин в странах содружества независимых государств Москва 2017г. Стр.9
5. Каримов Х.К. Социально-психологические особенности супружеских конфликтов в узбекской семье. Автореферат псих. Наук – Ташкент 1994б стр13.